

Toshkent viloyatida “Yoshlar daftari” ning yuritilishi va “Yoshlar jamg'armasi” mablag'laridan foydalanish bo'yicha hisobot shakli

Toshkent viloyatida jami 0-30 yoshdagi **1 571 890 nafar**, 18-30 yoshdagi **550 102 nafar** yoshlar mavjud.

Viloyatdagi **1 050 ta** mahallalarda **672 060 ta** xonadon uyma-uy yurilib, 18-30 yoshdagi **518 916 nafar** yoshlar xatlovdan o'tkazildi (*shundan, erkaklar – 249 894 nafar, xotin-qizlar – 266 022 nafar*).

Ushbu yoshlarning **198 044 nafari** (36.0 foiz) davlat, nodavlat, xususiy sektor va ta'lim sohasida rasman band hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar, **1 050 ta** mahallalarda o'rganish lozim bo'lgan **358 546 nafar** yoshlarning **342 374 nafari** (95.5 foiz) bilan **birma-bir muloqot** qilinib, shundan, “Yoshlar daftari”ga **35 498 nafar** (10.4 foiz) yoshlar kiritildi.

Ko'rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida **35 100 nafar** (98.9 foiz) **yoshlar daftardan chiqarildi**. Hozirda viloyat bo'yicha **398 nafar** (1.1 foiz) yoshlar “Yoshlar daftari”da qolmoqda.

Jumladan, “Yoshlar daftari”dan chiqarilgan yoshlarning 16 682 nafari (47.5 foiz) doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi;

979 nafariga (2.8 foiz) **32 307 mlrd. so'm** imtiyozli kreditlar ajratildi;

10 868 nafariga (30.9 foiz) “Har bir yoshga – bir gektar” tamoyili asosida **2 717 gektar** er maydonlari ajratildi.

Bundan tashqari, joriy yilda jami **35 871 nafar** bitiruvchilar ta'lim muassasalarini tamomlab, ularning **33 241 nafari** o'qishni davom ettirishi, **2 630 nafari** esa birinchi marta mehnat bozoriga kirib kelishini inobatga olib, ularning bandligini ta'minlash rejaları ishlab chiqildi.

Jumladan, bitiruvchilarning

1116 nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish;

102 nafarini doimiy va jamoat ishlariga jalb etish;

57 nafarini tashabbuskor tadbirkor va hunarmandlarga biriktirish;

1048 nafariga ijara asosida er ajratish;

241 nafariga “Bandlikka ko'maklashish” va “Yoshlar daftari” jamg'armalaridan subsidiya ajratish;

66 nafariga tadbirkorlik faoliyati uchun kredit ajratish rejalashtirilgan.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan maxsus jamg'armada jami **25 630,7 mlrd. so'm** mablag' shakllantirilgan bo'lib, uning **2 635,9 mln. so'mi** mahalliy byudjetdan, **10 032,8 mln. so'mi** undiruvlarga oid ijro hujjatlari bo'yicha mablag'lardan ajratma va **12 962,0 mln. so'mi** 01.01.2021 holatiga qoldiq mablag'larini tashkil etgan.

(Ma'lumot uchun: mahalliy byudjet daromadlarining prognoz ko'rsatkichini oshirib bajarilgan qismi jami 186 902 mlrd so'mni tashkil etadi, shundan 229 309 foizi jamg'armaga tushurilgan).

Bugungi kunga qadar jamg'arma mablag'lari hisobidan **5967 nafar** yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

uchun **581 981 ming.so'm** mablag' sarflandi.

Jumladan,

1703 nafar yoshlarga bir martalik moddiy yordam ajratish uchun **1 424 370 ming so'm**;

311 nafar yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarlariga o'qitish harajatlarini qoplash uchun **48 ming 031so'm**;

171 nafar yoshlarga urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun **168 ming 100 so'm**;

2 643 nafar yoshlarga asbob-uskunalar va mehnat qurollari xarid qilish uchun **5 464 ming.so'm**;

73 nafar yoshlarning to'lov-kontrakt summalarini to'lab berish uchun **155 289 ming.so'm**;

26 nafar yoshlarning davolanish xarajatlarini qoplab berish uchun **108 156 ming.so'm**;

2 nafar yoshlarning noturar joy ijarasini qoplab berish uchun **9 ming.so'm**;

0 nafar yosh oilalarning turar joy ijarasini qoplab berish uchun **0 ming so'm**; (Shu o'rinda mablag' sarflanmagan)

91 nafar yoshlarga psixologik xizmat ko'rsatish uchun **0 ming. 0 so'm**; (xomiylar yordami asosida)

310 nafar yoshlarning iste'dodini qo'llab-quvvatlash uchun **558 141 ming.so'm**;

52 nafar yoshlarning safarbarvarlik chaqiruvi rezervi uchun **262 560 ming.so'm**;

678 nafar yoshlarga haydovchilik guvohnomasi uchun **1 093 ming.so'm** ajratib berildi.

Mazkur jarayonni mahallalar kesimida o'rganish maqsadida tanlov asosida Piskent tumanida Saidobod MFYda yoshlar bilan ishlash faoliyati o'rganildi.

Jumladan, "Saidobod" MFYda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar **859 nafarni** tashkil etib, ularning **84 nafari** "Yoshlar daftari"ga kiritilgan.

Daftarga kiritilgan yoshlarga turli yo'nalishlarda amaliy yordamlar ko'rsatish orqali ularning **84 nafari** (ya'ni **100 foizi**) daftardan chiqarilgan.

Jumladan,

46 nafari doimiy ish o'rinlariga joylashtirilgan;

1 nafariga 30 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratilgan;

37 nafariga "Har bir yoshga - bir gektar" tamoyili asosida **11.1 gektar** er maydoni ajratilgan.

Bugungi kunda "Saidobod" MFYda "Yoshlar daftari"da mavjud bo'lgan **0 nafar** fuqarolarning bandligini ta'minlash bo'yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilib mavjud bo'lib, joriy yil yakuniga qadar ularning:

0 nafarini doimiy ish o'rinlariga joylashtirish;

0 nafariga 0 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratish;

0 nafariga 0 gektar er maydoni ajratish;

0 nafarini tashabbuskor tadbirkor va hunarmandlarga birlashtirish;

0 nafariga 0 mln. so'm “Bandlikka ko'maklashish” va “Yoshlar daftari” jamg'armalari hisobidan subsidiya ajratish;

0 nafariga ijtimoiy-iqtisodiy yordamlar ko'rsatish orqali bandligini ta'minlash rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 132-sonli qarorida “Yoshlar daftari” jamg'armasiga har chorak uchun mahalliy byudjetda shakllangan qo'shimcha manbalarning kamida **15 foizi** ajratilishi belgilab qo'yilgan. **Biroq**, Toshkent viloyati tuman, shaharlarida **I chorak** uchun mahalliy byudjet daromadlarining prognoz ko'rsatkichini oshirib bajarilgan qismining **15 foizi 186 mln. 902 ming so'mni** tashkil etsada, shundan “Yoshlar daftari” jamg'armasiga faqatgina **229 mln. so'm** yoki **123 foizi** o'tkazib berilgan.